



YOSH O'QUVCHILARGA LUG'ATNI O'RGATISH BO'YICHA AMALIY MASLAHATLAR

Shamsutdinova Iroda Alijonovna

Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang'ich

Ta'limda xorijiy til (ingliz tili) yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada lug'at o'rgatish bo'yicha amaliy maslahatlar haqida tushuncha, yosh o'quvchilarga lug'atni o'rgatish usullari va dars davomida lug'at yodlatish bo'yicha metodik qo'llanmalar.

Kalit so'zlar: lug'at, o'quvchi, amaliy topshiriq, nutq, o'zlashtirish, sinf tajribasi, samaradorlik, metodika.

Bugungi kunda boshlang'ich va o'rta ta'limda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, ularning erkin va mazmunli fikrlash malakalarini shakllantirish muhim vazifaga aylangan. Zamonaviy ta'lim jarayonida ona tili darslarida o'quvchilarning faol fikrlashi, mustaqil izlanishi, hamda kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish muhim o'rin egallaydi.¹ Bunga erishishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, ona tili darslari mazmunida so'zlar ustida ishlash, lug'atni kengaytirish, ularning ma'no qatlamlarini anglash, turli matnlarda qo'llash malakasini shakllantirish o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

Lug'at bilan ishlashda qanday usullar sinovdan o'tkazildi?

Avvalo, oddiydan murakkabga qarab bosqichlangan mashg'ulotlar tuzildi. Boshlang'ich haftalarda o'quvchilarga tanish, lekin amalda kam ishlatiladigan so'zlar bilan ishlash topshiriqlari berildi. Masalan: "mehribon", "saboqli",



“qat’iyatli” kabi so‘zlarga sinonim va antonim topish, ularni turli gaplarda ishlatish, so‘z yasalishi, morfemik tahlili o‘rgatildi.

Keyingi bosqichlarda murakkabroq topshiriqlar berildi: rasmlar asosida matn tuzish, ma’lum so‘zlardan iborat lug‘at kartalarini tuzish, hikoyaning matnini qismlarga bo‘lib, u yerda ishlatilgan so‘zlarni to‘g‘ri tahlil qilish. Eng faol va qiziqarli usullardan biri bu “So‘z yutuqlari jurnali” bo‘ldi – har bir o‘quvchi o‘z daftarida har hafta o‘rgangan 10 ta yangi so‘z, ularning ma’nosi, qo‘llanilishi va o‘z fikrida tuzgan gaplarini yozib bordi. Bu orqali ular so‘z ustida doimiy fikrlashga o‘rganishdi. “Leksik kompetensiya – bu o‘quvchining so‘z zaxirasini to‘g‘ri va maqsadga muvofiq ishlata olish qobiliyatidir. Bu kompetensiyani rivojlantirish uchun dars jarayonida kontekstual yondashuv va mashqlar tizimi muhim o‘rin tutadi”¹.

Shu asosda aytish mumkinki, lug‘at bilan ishlash topshiriqlari o‘zbek tili darslarining mazmuniy boyligini kuchaytirish, o‘quvchini tilga muhabbatli qilish, nutqga bo‘lgan estetik yondashuvini shakllantirish yo‘lida katta imkoniyatlar beradi. Shuningdek, bu topshiriqlar til o‘rganishdagi passiv yondashuvni buzib, faol, izlanishga asoslangan, ijodiy o‘zlashtirishni rag‘batlantiradi.

Tajriba davomida olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, lug‘at bilan ishlashga oid amaliy topshiriqlar o‘quvchilarda so‘zga e’tiborni kuchaytiradi, mustaqil izlanish, tahlil qilish malakasini shakllantiradi, yozma nutq sifatini oshiradi, matn bilan ishlashda ijodiy yondashuvga yo‘l ochadi.

Lug‘at boyligini oshirish til o‘rganishning asosi hisoblanadi. Bu o‘qishni tushunish, muloqot qilish va akademik muvaffaqiyatga erishishda muhimdir. Lug‘at o‘rgatish usullari o‘quvchilarning qiziqishi va yodda saqlashiga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin. O‘rta maktablarda o‘qituvchilar lug‘atni samarali o‘rgatish uchun an’anaviy va noan’anaviy usullarni muvozanatlashtirishda ko‘pincha qiyinchiliklarga duch keladilar. Quyida ularni ko‘rib chiqamiz.

¹ G‘afforova, M. (2021). Til o‘rganishda lug‘at boyligini shakllantirish usullari. Toshkent: Fan va texnologiya.



Lugʻat oʻrgatishning anʻanaviy usullari.

Har qanday chet tilini oʻqitish metodologiyasining maqsadlaridan biri oʻquvchining chet tilidagi koʻnikmalarini oshirishdir. Biroq, anʻanaviy metodologiya chet tilidan foydalanishning integratsiyalashgan jarayonini koʻp jihatdan alohida koʻnikmalar va bilim sohalariga ajratishga asoslanadi. Bu asosan funksional usul boʻlib, koʻnikmalar va bilim sohalariga izolyatsiyada eʼtibor qaratadi.

Lugʻat oʻrgatishning noanʻanaviy usullari.

Anʻanaviy metodologiyadan farqli oʻlaroq, zamonaviy metodologiya koʻproq oʻquvchi markazli hisoblanadi. Jim Scrivenerning fikriga koʻra, oʻqituvchining asosiy vazifasi „oʻrganishni roʻyobga chiqarishga yordam berish“, yaʼni „talabalarni oʻz tezliklarida ishlashga imkon yaratish, uzoq tushuntirishlardan qochish, ularni qatnashishga, gapirishga, muloqot qilishga, nimadir qilishga undash“dan iboratdir.

Maktabgacha yoshda bola shunday lugʻatga ega boʻlishi lozimki, toki u bolaga tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish, maktabda muvaffaqiyatli taʼlim olish, adabiyotni, televizion va radio eshittirishlarini tushunish imkonini bersin. Shuning uchun maktabgacha taʼlim pedagogikasi lugʻatni rivojlantirishga nutqni rivojlantirishning muhim vazifalaridan biri sifatida qaraydi. Lugʻatni rivojlantirishni xalq tomonidan tarixiy davrlar mobaynida toʻplangan lugʻat zahirasini oʻzlashtirishning uzoq davom etadigan jarayoni sifatida tushunish darkor. Ushbu jarayonning miqdoriy va sifat jihatlarini ajratish mumkin.

Psixologiyada ham soʻz mazmuni umumlashtirma yoki tushuncha sifatida belgilanadi. «Soʻz mazmuni psixologik jihatdan aynan umumlashtirilgan tushunchaning oʻzidir. Biz soʻz mazmunini fikrlash fenomeni sifatida koʻrib chiqishga haqlimiz» (L.S.Bngotskiy). Shuning uchun lugʻatni egallash jarayoni tushunchalar bilan uzviy bogʻliq va shu tufayli u quyidagi oʻziga xos xususiyatlarga ega:



1-xususiyati — bolalar lugʻatining mazmuni. Fikrlashining koʻrgazmalitadir va koʻrgazmali-obrazli tusga egaligi bois bola eng avvalo koʻrgazmali taqdim etilgan yoki uning faoliyati uchun mumkin boʻlgan, bolalar lugʻatida ancha keng aks ettirilgan narsalar, hodisalar, sifatlar, xususiyatlar, munosabatlarni oʻzlashtirib oladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning lugʻatida nisbatan mavhum tushunchalarni belgilaydigan bunday soʻzlarning yoʻqyaigi yoki ularning maʼnosi buzilishi ham shu bilan izohlanadi.

2-xususiyati — soʻzning maʼnosi, mazmun-mohiyatini asta-sekin egallash. Maktabgacha yoshdagi bolada tushunchalar asosida fikrlash hali shakllanmaganligi sababli u egallab olgan soʻzlarning maʼnosi ham muayyan yosh bosqichida tushunarli boʻlmaydi. Dastlab bola soʻzni muayyan narsa yoki hodisa bilan bogʻlaydi. Bunday soʻz umumlashtiruvchi xususiyatga ega emas, u faqat bolaga muayyan narsa, hodisa haqida signal beradi va ularning obrazini chaqiradi (masalan, bola uchun soat soʻzi faqat uning xonasida osilib turgan soatni anglatadi, xolos). Maktabgacha yoshdagi bolaning atrofida borliqni — narsalar, hodisalar (xususiyatlar, xossalari, sifatlar)ni oʻzlashtirishining borishiga qarab u ularni u yoki bu belgisiga qarab umumlashtirishni boshlaydi. Koʻpincha umumlashtirishlar ahamiyatsiz, biroq bola uchun emotsional jihatdan muhim boʻlgan belgilariga qarab qilinadi. Shunday qilib, maktabgacha bosqichdagi bolalikda soʻz mazmuni bolaning bilish imkoniyatlari rivojlanishiga qarab oʻzgarib boradi.

3-xususiyati — bola lugʻati hajmining kattalar lugʻati hajmidan ancha kamligi. Chunki bolaning bilish tajribasi va pirovardida atrof-olam haqida toʻplagan maʼlumotlari katta yoshli odamning bilimlari hajmidan ancha kam boʻladi. Lugʻatni rivojlantirishdagi mazkur xususiyatlar maktabgacha taʼlim tashkilotidagi bolalar bilan olib boriladigan lugʻat ishlarining vazifalarini aniqlash imkonini beradi.

Maktabgacha taʼlim tashkilotidagi lugʻat ishlarining mohiyati — bu til leksikasi sohasida bolalarning ularga tanish yoki notanish boʻlgan, ammo ular uchun qiyin hisoblangan soʻzlarning oʻzlashtirishlariga, nutq madaniyatini oshirishga



qaratilgan ta'lim-tarbiya ishlarini bir tizimga keltirishdan iboratdir. Bolalarni ular o'z amaliyotida qiyinchilik bilan o'zlashtiradigan, to'satdan yoki umuman tanimaydigan, buzilgan shaklda talaffuz qiladigan so'zlar bilan qurollantirish ancha pedagogik sa'y-harakatlarni talab qiladi. Psixologiya, lingvistika, fiziologiyaga oid ma'lumotlar turli yosh bosqichlaridagi bolalar uchun ana shunday so'zlar doirasini aniqlashga yordam beradi, Bolalar lug'atini boyitish bir vaqgning o'zida ularni atrofdagi borliq olam bilan tanishtirish bilan birgalikda olib boriladi. Tarbiyachi bolaga bir so'zni ma'lum qilish va uning ma'nosini ochib berish bilan bir vaqgda uni nomi aytilayotgan narsa yoki hodisaga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rgatadi. O'zbek tili lug'ati to'xtovsiz tarixiy rivojlanish jarayonida bo'ladi. Undagi o'zgarishlar eng avvalo insonning ishlab chiqarish faoliyati, jamiyatning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Yangi narsalar va hodisalarning paydo bo'lishi bilan ularni nomlovchi yangi tushunchalar va so'zlar ham paydo bo'ladi. Bundan tashqari ilgaridan mavjud bo'lgan ayrim so'zlar yangilanadi, ularning ma'nosi o'zgaradi, ko'p so'zlar muomaladan chiqib ketadi.

Xulosa

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari tez sur'atlarda rivojlanayotgan davrda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, mustaqil fikrlash, muloqotga kirisha olish hamda kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish ta'lim jarayonining ustuvor vazifalaridan biriga aylangan. Ona tili darslarida lug'at boyligini oshirish, so'z ma'nolarini chuqur anglash, ularni nutqda to'g'ri qo'llay bilishga o'rgatish nafaqat til kompetensiyasining asosi, balki o'quvchining intellektual rivoji va nutq madaniyatini shakllantirishning muhim omilidir.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, lug'at ustida bosqichma-bosqich tashkil etilgan mashg'ulotlar — sinonim va antonim topish, kontekstda qo'llash, so'z ma'nolarini sharhlash, matn asosida so'zlarni tahlil qilish, "So'z yutuqlari jurnali" kabi ijodiy mashqlar — o'quvchilarda mustaqil tahlil qilish, izlanish va eslab qolish



jarayonlarini sezilarli faollashtiradi. Zamonaviy lingvodidaktik qarashlar, xususan kontekstual yondashuv, o'quvchi markazli metodlar, ilg'or pedagogik texnologiyalar lug'atni o'rgatishda yuqori samaradorlik beradi. Bu metodlar o'quvchilarni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol fikrlovchi, izlanishga moyil, nutqiy faol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning lug'atini rivojlantirish esa yanada nozik, murakkab va bosqichma-bosqich kechadigan jarayondir. Psixologlar ta'kidlaganidek, bola avvalo ko'rgazmali-obrazli fikrlaydi, shu sababli u o'kshash belgilar, obrazlar va kundalik amaliy faoliyat orqali so'z ma'nosini egallay boshlaydi (L.S. Vygotskiy). Shuning uchun maktabgacha ta'limda lug'at ustida ishlash mazmuni nafaqat yangi so'zlarni o'rgatish, balki ularning ma'nosini ongli anglash, to'g'ri qo'llay bilish, so'z orqali atrof-muhitni to'g'ri idrok etishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Lug'atni boyitish — bu faqat til o'qitish jarayoni emas, balki bolani atrof-muhit bilan to'liq tanishtirish, til orqali dunyoqarashini kengaytirish, muloqot madaniyatini shakllantirish, emotsional-intellektual rivojiga ta'sir ko'rsatadigan kompleks jarayondir. Shuning uchun maktabgacha ta'limdan tortib umumta'lim maktablarigacha lug'at ishlari muntazam va tizimli ravishda olib borilishi zarur.

Yakun qilib aytganda, lug'at bilan ishlashga qaratilgan innovatsion pedagogik yondashuvlar:

- o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi;
- nutq madaniyatini shakllantiradi;
- tilga bo'lgan qiziqishni oshiradi;
- matn bilan ishlash ko'nikmalarini takomillashtiradi;
- ijodiy izlanish va kommunikativ faollikni kuchaytiradi.

Shu bilan birga, lug'atni kengaytirish o'quvchining barcha o'quv fanlarini o'zlashtirishida asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Demak, lug'at ustida tizimli,



bosqichli va ilmiy asoslangan ishlar ta'lim sifatini oshirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Utanova Vaziraxon Maxmudjon qizi „Lug‘at bilan ishlashga oid amaliy topshiriqlar samaradorligi” 2024
2. G‘afforova, M. (2021). Til o‘rganishda lug‘at boyligini shakllantirish usullari. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Jo‘raev, N. (2019). Ona tili darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: O‘qituvchi.
4. B.R.Mengliyeva, S.F.safarova „Yuqori sinf o‘quvchilarining lug‘at boyligini o‘stirishning an‘anaviy va noan‘anaviy usullari” 2024
5. Beck I.L, McKeown, M.G, Kucan, L (2013). Bringing words to life: Robust vocabulary instruction. Guilford press
6. Achilova Soxiba Xamidovna, Turg'unboyeva Dildoraxon Baxromjon „MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN LUG‘AT ISHINI OLIB BORISHNING NAZARIY ASOSLARI” 2025
7. Achilova S. Pedagogical opportunities for the upbringing of physical qualities by purposeful development of action potential in preschool children // International Journal of Social Sciences & Interdisciplinary Researc. Vol.11. Date of publication: 04.04.2022, – P.134- 143.(IF 7.429)
8. Kadirova, Dildora Nadjatbekovna. "PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES AT THE CENTERS FOR THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL EDUCATIONAL." Bulletin news in New Science Society International Scientific Journal 1.3 (2024): 86-92